Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: Hamkorlikning yangi bosqichi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va “O’zbekiston texnologik metalllar kombinati” aktsiyadorlik jamiyati o’rtasida fan, ta’lim va innovatsion rivojlanish sohasida o’zaro hamkorlik to’g’risida Memorandum imzolandi.

Ushbu hujjat yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni kengaytirish, konchilik, metallurgiya, materialshunoslik va kimyo sohalarida ilmiy-amaliy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida imzolandi. Tomonlar uzoq muddatli hamkorlikni yo’lga qo’yish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ta’lim dasturlarini rivojlantirish va fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni maqsad qildilar.

Hamkorlikning asosiy yo’nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:
xalqaro laboratoriyalar va ilmiy tadqiqot institutlari ishtirokida qo’shma ilmiy-tajriba ishlari va innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish;
xorijiy tajriba asosida xalqaro standartlarga muvofiq ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;
talabalar va mutaxassislar uchun xorijiy ta’lim muassasalari va korxonalarda stajirovkalar, amaliyotlar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
texnologiyalar transferi va korporativ venchur dasturlarini tashkil etish orqali innovatsion startaplarni qo’llab-quvvatlash va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishga ko’maklashish;
xalqaro tashkilotlar va xorijiy mutaxassislarni jalb etish orqali qo’shma loyihalarni amalga oshirish va hamkorlikni kengaytirish.

Memorandum doirasida sanoat uchun innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida ilmiy-ishlab chiqarish konsortsiumlarini tashkil etish, xalqaro forumlar, konferensiyalar va seminarlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.
Memorandum 3 yil muddatga tuzilgan bo’lib, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Hujjat har ikki tomonning hamkorlikni chuqurlashtirish, ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va mahalliy kon-metallurgiya sanoatining raqobatbardoshligini oshirish bo’yicha intilishlarini aks ettiradi.